

---

## MAKTABGA HARBIYLAR TASHRIF BUYURDI

Qo'shtepa tumanidagi 3-umumta'lim mакtabiga Sharqiy harbiy okrug harbiy xizmatchilari tashrif buyurdilar.



Tashrifdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchi yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflı va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishdan iboratdir.



---

Tadbir davomida Sharqiy harbiy okrug harbiy orkestri jamoasi tomonidan ijro etilgan kuylar hamda harbiy qismda yigitlik burchini o'tayotgan askarlarning qo'l jangi elementlari namoyishi maktab o'quvchilarida katta taassurot qoldirdi.

**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2020-12-21 14:24:41